2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 26 (1352), 2025-yil 6-fevral, payshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘ZBEKISTON — MALAYZIYA: TARIXIY DO‘STLIK ALOQALARI IKKI DAVLAT O‘RTASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIKNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning taklifiga binoan 4-5-fevral kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

O‘zbekiston va Malayziyani tarixiy do‘stlik aloqalari mustahkam bog‘lab turadi. Bu do‘stlik esa o‘zaro teng manfaatlar, bir-biriga yaqin madaniy qadriyatlar va o‘xshash urf-odatlar asosiga qurilgani bilan ahamiyatli. Yakdillik keyingi yillarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Xususan, ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi.

5-fevral kuni Kuala-Lumpur shahridagi “Perdana Putra” hukumat majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Davlatimiz rahbarini Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tortdi. Ikki mamlakat davlat madhiyalari yangradi.

O‘zbekiston Prezidenti faxriy qorovul safi oldidan o‘tdi.

Shundan so‘ng “Perdana Putra” hukumat majmuasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim tor doirada va rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Malayziya Bosh vaziriga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan “Madani” davlat strategiyasining yuksak natijalari bilan dildan qutladi.

O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish va mustahkamlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Malayziya Bosh vazirining o‘tgan yil may oyida O‘zbekistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi ikki mamlakat o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirishga katta sur’at bag‘ishlagani ta’kidlandi.

Siyosiy muloqot va parlamentlararo aloqalar faollashdi. O‘zaro tovar ayirboshlash hajmi, qo‘shma korxonalar va aviaqatnovlar soni oshmoqda.

O‘tgan yili Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig‘ilishi samarali o‘tkazildi, Ishbilarmonlar kengashi tuzildi, qator yirik biznes forumlari tashkil etildi.

Tashrif arafasida tahliliy markazlar uchrashuvi, O‘zbekistonning turizm salohiyati va madaniy merosi taqdimotlari, yetakchi oliy ta’lim muassasalari rektorlari forumi o‘tkazildi.

Hamkorlikni rivojlantirish va oliy darajadagi kelishuvlar ijrosini samarali muvofiqlashtirish maqsadida Tashqi ishlar vazirlarining strategik muloqoti platformasini tashkil etishga qaror qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiya sohalaridagi amaliy hamkorlik masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish maqsadida Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish, o‘zaro sanoat ko‘rgazmalarini o‘tkazish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilishga kelishib olindi.

Malayziya hukumati O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishini faol qo‘llab-quvvatlamoqda.

Yetakchilar 2025-2026-yillarni O‘zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri deb e’lon qilishga kelishib oldilar.

Iqtisodiy hamkorlikning yangi modelining ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. Bular — neft-kimyo va kimyo, elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoati, innovatsion sanoat, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, “yashil” energetika, ziyorat turizmi va boshqalar.

Kooperatsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Toshkent viloyatida Malayziyaning yetakchi kompaniyasi boshqaruvida maxsus iqtisodiy zona tashkil etilmoqda.

Davlat rahbarlari faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirish muhimligini ta’kidladilar. Joriy yilda O‘zbekiston va Malayziyada madaniyat haftaliklari o‘tkaziladi.

Yetakchilar mintaqaviy hamkorlikning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashdilar. Terrorizm, radikalizm va islomofobiyaga qarshi kurashda sa’y-harakatlarni birlashtirish muhimligi qayd etildi.

Muzokaralar yakunida erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni tayyorlashga qaror qilindi.

Yakunda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimni rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etdi.

Kuala-Lumpur shahrida bo‘lib o‘tgan samarali muzokaralar yakunida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim Strategik sheriklik yo‘lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonot imzoladilar.

Shuningdek, quyidagi hujjatlar qabul qilindi:

— Mahsulotlarning “halol” standartlariga muvofiqligini baholash sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Bojxona ishida hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risida bitim;

— Oliy ta’lim sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Sog‘liqni saqlash sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Madaniyat sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Sud-ekspertlik faoliyati sohasida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Akademik-diplomatik hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— “Aqlli” shaharlarni rivojlantirish sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayonnoma;

— 2025-2026-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi sheriklikni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shma reja.

So‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziya Islom san’ati muzeyiga tashrif buyurdi.

Ta’kidlash joizki, ushbu majmua mamlakatning eng yirik muzeylaridan biri hisoblanadi. U 1998-yilda tashkil etilgan.

Muzey an’anaviy islom me’morchiligi uslubida barpo etilgan bo‘lib, uning umumiy maydoni 30 ming kvadrat metrdan ziyodni tashkil etadi.

Bino gumbazining ichki qismini bezash va restavratsiya ishlarida o‘zbekistonlik ustalar ishtirok etgan.

Bu yerda 10 mingdan ortiq islom san’ati namunalari saqlanmoqda. Doimiy ekspozitsiyada Qur’on qo‘lyozmalarining noyob to‘plami, sopol va qimmatbaho buyumlar, qurol-yarog‘ namunalari va inshootlar maketlari, taqinchoqlar, tangalar va boshqa ashyolar namoyish etilmoqda.

Muzey fondida zamonaviy O‘zbekiston hududida turli tarixiy davrlarda yaratilgan 200 ga yaqin noyob eksponatlar alohida o‘rin egallaydi. Ular orasida o‘rta asrlarga oid qo‘lyozmalar, zargarlik buyumlari, mashhur abr matolari va kiyim namunalari, Sharq Renessansiga oid kulolchilik buyumlari mavjud.

Davlatimiz rahbari eksponatlarni ko‘zdan kechirish chog‘ida birgalikda tadqiqotlar o‘tkazish va ko‘rgazmalar tashkil etish, ilmiy va madaniy almashinuvni kengaytirish muhimligini ta’kidladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim Kuala-Lumpur shahrida qo‘shma biznes forumida ishtirok etdilar.

Tadbirda ikki mamlakat yetakchi kompaniyalari, investitsiya va bank-moliya institutlarining 200 dan ziyod rahbarlari, jumladan, Malayziyaning “Petronas”, “MMC Corporation”, “DRB-Hicom”, “Gemilang Coachwork”, “Proton”, “Gentari”, “Five Petroleum”, “YTL Corporation”, “Sunview Group”, “KPJ Healthcare”, “MK Tron”, “Mimos”, “Sparco Engineering”, “Tradewinds Group”, “Kapital DX”, “Gamuda”, “Westports”, “Khazanah”, “EXIM Bank of Malaysia” va boshqa ko‘plab kompaniyalari vakillari qatnashdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida oliy darajadagi samarali muzokaralarda O‘zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirishning ikki yillik davrini boshlash bo‘yicha kelishuvga erishilgani, amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olinganini ta’kidladi.

O‘tgan yili Hukumatlararo komissiya va Ishbilarmonlar kengashi tashkil etilgani, ikki mamlakat ishbilarmonlari ishtirokida qator yirik tadbirlar o‘tkazilgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davomi 2-betda

MARKAZIY OSIYO VA ASEAN MINTAQALARINING O‘ZARO MUNOSABATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

XORIJIY EKSPERTLAR KUALA-LUMPUR SHAHRIDA BO‘LIB O‘TGAN OLIY DARAJADAGI O‘ZBEKISTON — MALAYZIYA SAMMITI YAKUNLARI HAQIDA



4-5-fevral kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziyada ikki kunlik rasmiy tashrif bilan bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari tashrif doirasida Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim bilan samarali muzokaralar o‘tkazdi, yetakchi kompaniyalar, investitsiya va bank-moliya institutlari rahbarlari hamda vakillari ishtirokida o‘tkazilgan qo‘shma biznes-forumda ishtirok etdi.

Kuala-Lumpurda bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi samarali muzokaralar yakunida Strategik sheriklik yo‘lida ikki tomonlama hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risidagi Qo‘shma bayonot, shuningdek, turizm, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, bojxona, sud-tibbiyot, korrupsiyaga qarshi kurashish va boshqa sohalarda o‘zaro hamkorlikka oid salmoqli hujjatlar to‘plami imzolandi.

Xorijiy ekspertlar O‘zbekiston bilan Malayziya o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik faollashgani tabiiy jarayon ekanini, tashrif dasturi va uning natijalari shundan dalolat berishini ta’kidlamoqda.

Davomi 2-betda

Prezident topshirig‘i — amalda

SURXONDARYO VA TOSHKENT ORASIDAGI MASOFA 146 KILOMETRGA QISQARADI

Hududlar infratuzilmasini yanada yaxshilashda yo‘llarning ravon bo‘lishi muhim omillardan. Shu bois, uchta davlat bilan chegaradosh, yurtimizni Osiyoning qator davlatlari bilan bog‘lovchi muhim koridorda joylashgan Surxondaryo viloyatida yo‘l qurilishi borasida ko‘lamli ishlar bajarilyapti. Xalqaro hamda mahalliy ichki yo‘llarni yanada yaxshilash bo‘yicha qabul qilinayotgan qator dasturlar yangilanishlarga asos bo‘lib xizmat qilayotir.

Davlatimiz rahbari 2023-yil 13-martda Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida mas’ullarga “Darband — Boysun — Elbayon” avtomobil yo‘lini qayta qurish bo‘yicha topshiriq bergan edi. Mazkur yo‘lni rekonstruksiya qilish ishlari o‘sha yil avgustda boshlab yuborildi. Bugun ham jadal davom etmoqda.

Davlat ahamiyatidagi 4R–100 va 4R–105 “Manguzar — Jarqo‘rg‘on — Bandixon — Oltinsoy — Denov” avtomobil yo‘lining katta qismida beton qoplamasi yotqizildi. Ushbu loyiha doirasida rekonstruksiya qilinadigan avtomobil yo‘lining umumiy uzunligi 100 kilometrdan ortiq bo‘lib, viloyatning Boysun, Bandixon, Qumqo‘rg‘on, Oltinsoy va Denov tumanlari hududidan o‘tadi.

Davomi 4-betda

O‘ZBEKISTON — MALAYZIYA: TARIXIY DO‘STLIK ALOQALARI IKKI DAVLAT O‘RTASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIKNI YANGI BOSQICHGA KO‘TARADI

Boshlanishi 1-betda

Mamlakatlarimiz geografik jihatdan bir-biridan olis bo‘lishiga qaramay, transport va logistika imkoniyatlari kengayib bormoqda. Poytaxtlar o‘rtasida deyarli har kuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda.

Bo‘lib o‘tgan muzokaralarda mavjud zaxiralar chuqur tahlil qilinib, ko‘p qirrali sheriklikning yangi “o‘sish nuqtalari” belgilab olindi.

Tovar ayirboshlash hajmini karrasiga oshirish, imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish, o‘zaro ko‘rgazma va yarmarkalar o‘tkazish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Qo‘shma loyihalarning salmoqli portfeli shakllantirildi, Sanoat kooperatsiyasi dasturi ishlab chiqildi.

— Maqsadimiz — munosabatlarni strategik sheriklik darajasiga olib chiqish, — dedi Prezident.

Malayziya O‘zbekistonning muhim innovatsion va texnologik hamkoridir. Shu ma’noda, davlatimiz rahbari O‘zbekiston — Malayziya ishbilarmonlik hamkorligini yanada rivojlantirishning qator ustuvor yo‘nalishlarini ko‘rsatib o‘tdi.

Bu, eng avvalo, elektronika va yarimo‘tkazgichlar sanoatida uzoq muddatli hamkorlikni kengaytirishdir. Sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, ma’lumot markazlari bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish mumkinligi qayd etildi.

Gaz-kimyo va kimyo sanoati muhim yo‘nalish hisoblanadi. Polimerlar, “yashil” vodorod va ammiak ishlab chiqarish bo‘yicha strategik loyihalarni tayyorlash ustida ish olib borilmoqda.

Qurilish sohasining jadal rivojlanishi innovatsion va ekologik toza qurilish materiallariga talabni oshirmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Malayziya kompaniyalarini mamlakatimiz hududlarida zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish va keng ko‘lamli bunyodkorlik ishlarida faol ishtirok etishga chaqirdi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi o‘zaro manfaatli hamkorlik istiqbollari qayd etildi. Zamonaviy klinikalar qurish, Malayziyaning ilg‘or tajribasi asosida innovatsion farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish shular jumlasidan.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda katta imkoniyatlar borligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu nuqtayi nazardan, “aqlli” qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish, organik mahsulotlar ishlab chiqarish va “halol” standartlarini qo‘llash bo‘yicha qo‘shma loyihalarni amalga oshirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Davlatimiz rahbari Malayziyaning yetakchi kompaniya va banklarini O‘zbekistonning telekommunikatsiya, energetika, bank-moliya va boshqa sohalardagi davlat aktivlarini xususiylashtirishda faol ishtirok etishga taklif etdi.

Bundan tashqari, geologiya, ta’lim, transport, ziyorat turizmi kabi yo‘nalishlarda hamkorlik qilish uchun katta salohiyat mavjudligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi malayziyalik ishbilarmonlarning qo‘shma investitsiya loyihalarini amalga oshirishga qiziqishi katta ekanini, ular texnologiyalar va bilimlar bilan o‘rtoqlashishga tayyorligini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Shu munosabat bilan Toshkent viloyatida Malayziya kompaniyasi boshqaruvida maxsus iqtisodiy zona tashkil etilishi ma’lum qilindi.

So‘zining yakunida davlatimiz rahbari navbatdagi qo‘shma biznes forumini shu yil kuzda O‘zbekistonda o‘tkazishni taklif etdi.

Kuala-Lumpur shahridagi ishbilarmonlik dasturi davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim “Petronas” korporatsiyasining bosh qarorgohi — “Twin Towers” binosiga tashrif buyurib, kompaniya prezidenti Muhammad Tavfiq bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Neft-gaz, neft-kimyo va qayta tiklanuvchi energetika sohalarida yetakchilardan biri bo‘lgan ushbu global kompaniya bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari xomashyoni chuqur qayta ishlash va “yashil” energetika loyihalarini amalga oshirish borasidagi istiqbolli rejalarni qo‘llab-quvvatladi.

Geologiya-qidiruv ishlarini olib borish va istiqbolli uglevodorod konlarini o‘zlashtirish, karbonat angidrid gazini ushlab qolish va saqlash bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, “Petronas” universiteti negizida yuqori malakali kadrlar tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida qayd etildi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘zA

BUYUK BRITANIYADA MARKAZIY OSIYO YOSHLARI ALYANSI TASHKIL ETILDI

Mamlakatimiz elchixonasi va Buyuk Britaniyadagi O‘zbekiston talabalar ittifoqi hamkorligida Londondagi Qirollik kollejida Markaziy Osiyo yoshlari birinchi sammiti tashkil etildi.

Tadbir doirasida Markaziy Osiyo yoshlari alyansi (Central Asian Youth Alliance)ning tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Markaziy Osiyo yoshlari alyansi Markaziy Osiyoning besh davlati talabalari va yoshlarini Buyuk Britaniyada madaniyat, ta’lim va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirish uchun birlashtirish maqsadida tashkil etildi.

Anjuman avvalida Markaziy Osiyo yoshlari alyansining maqsad va vazifalari to‘g‘risida taqdimot o‘tkazildi.

Sammit ishtirokchilariga O‘zbekiston Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev, Qirg‘iziston ta’lim va fan vaziri Dogdurkul Kendirbayeva, Tojikiston tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari Ismatullo Nasriddin videomurojaat yo‘lladi.

So‘zga chiqqanlar Markaziy Osiyo yoshlari alyansi tuzilishiga 2023-yilda O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan imzolangan yoshlar siyosati bo‘yicha yagona yondashuvlar to‘g‘risidagi bitim asos bo‘lganini qayd etdi. Tadbir ishtirokchilari, shuningdek, ushbu tarixiy hujjat yoshlar salohiyatini rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va kelgusi avlodlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga qaratilgan umumiy strategiyalarni ishlab chiqish uchun xizmat qilishini ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi BMTning Markaziy Osiyo yoshlarini rivojlantirishga ko‘maklashish rivojini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus ishchi guruhini tuzish tashabbusi sammitning barcha ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi.

O‘zbekiston elchisi Ravshan Usmonov o‘z chiqishida davlatimiz rahbarining xalqaro jamoatchilikka yo‘llagan mazkur chaqirig‘i yoshlarga investitsiya kiritish mintaqa taraqqiyoti, barqarorligi va innovatsiyalari kaliti ekanini yana bir bor tasdiqlaganini ta’kidladi. Qayd etilganidek, ushbu tashabbus kelajakni sheriklik, o‘zaro tushunish va ijobiy o‘zgarishlarga intilish asosida barpo etishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari, erishilgan natijalar va kelgusi rejalar haqida batafsil so‘zlab berildi.

Anjumanda so‘zga chiqqanlar Markaziy Osiyo yoshlari alyansi mintaqa yoshlari o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga, o‘zaro hamkorlikning yangi yo‘nalishlarini topishga va boshqa jabhalarda yoshlar uchun tayanch bo‘lishiga ishonch bildirdi.

Sammit doirasida Markaziy Osiyo davlatlarining Buyuk Britaniyadagi elchilari bilan talabalar o‘rtasida ochiq muloqot tashkil etildi. Unda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning diplomatik missiyalari rahbarlari hamda Tojikiston elchisi o‘rinbosari ishtirok etdi. Talabalar mintaqa rasmiy vakillari bilan yoshlar siyosati va Markaziy Osiyo taraqqiyotida yoshlarning o‘rni haqidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Shuningdek, tadbir doirasida Markaziy Osiyodan nufuzli mutaxassislar ishtirokida onlayn formatda panel munozaralar o‘tkazildi. Ularda diplomatiya, sport va ta’lim sohalaridagi muhim masalalarga e’tibor qaratildi.

“Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida ta’lim aloqalarini mustahkamlashda ta’limning o‘rni” mavzusidagi panel munozarada O‘zbekiston nomidan “El-yurt umidi” jamg‘armasi direktori Adham Bekmurodov qatnashdi. Unda ta’lim dasturlari, stipendiya tashabbuslari va mintaqada talabalar o‘rtasida akademik almashinuv istiqbollari xususida fikrlashildi.

“Markaziy Osiyo mintaqasini birlashtirishda sportning o‘rni” mavzusidagi panel munozarada O‘zbekiston Milliy olimpiya qo‘mitasi bosh kotibi Oybek Qosimov ishtirok etdi. Mazkur tadbirda sport tadbirlari va qo‘shma tashabbuslarning mintaqaviy birdamlikni mustahkamlashdagi ahamiyati muhokama qilindi.

> **“Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida aloqalarni mustahkamlash vositasi sifatida diplomatiya” mavzusidagi panel munozarada O‘zbekistonning sobiq tashqi ishlar vaziri Vladimir Norov ma’ruza qildi. Ushbu sessiyada diplomatiyaning mintaqaviy hamkorlik rivojidagi roli, mavjud muammolar va davlatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirish imkoniyatlari haqida fikr almashildi.**

Tadbir yakunida Markaziy Osiyo yoshlar harakatlari yetakchilarining joriy yil may oyida O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadigan Global yoshlar festivalida ishtirok etishi to‘g‘risida kelishuvga erishildi.

“Dunyo” AA
London

MARKAZIY OSIYO VA ASEAN MINTAQALARINING O‘ZARO MUNOSABATLARINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI

Boshlanishi 1-betda

Xesus XIL,
Madrid avtonom universitetining Osiyo tadqiqotlari markazi professori, Ispaniya Sharqshunoslar uyushmasi bosh kotibi, turkshunos:

— O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojini katta qiziqish bilan kuzatdim. Prezident Shavkat Mirziyoyevning Kuala-Lumpurga rasmiy tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlash, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlikni kengaytirishga intilishining muhim bosqichidir.

O‘zbekiston va Malayziya geografik jihatdan bir-biridan uzoqda bo‘lishiga qaramay, ko‘plab aloqa nuqtalariga ega. Ularni nafaqat umumiy madaniy-tarixiy rishtalar, balki strategik ustuvorliklar o‘xshashligi ham birlashtiradi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, barqaror energetikani rivojlantirish va xalqaro savdo hamkorligini kengaytirish kabi yo‘nalishlar shular jumlasidan. Umumiy qiymati 3 milliard dollardan ortiq investitsiyaviy shartnomalar imzolangani hamkorlikning iqtisodiy salohiyati yuksalib borayotganidan dalolat.

Ilm-fan va ta’lim almashinuvini faollashtirish alohida e’tiborga loyiq. Malayziya oliy o‘quv yurtlarida 500 dan ortiq o‘zbekistonlik talaba tahsil olayotgani, so‘nggi yillarda universitetlar o‘rtasida 25 ta shartnoma imzolangani akademik hamkorlikning muhimligini ko‘rsatadi. Ta’lim almashinuvi nafaqat malakali mutaxassislar tayyorlash, balki xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda.

Tashrif, shuningdek, barqaror rivojlanish va mintaqaviy hamkorlik muhimligini namoyish etdi. O‘zbekiston va Malayziya “yashil” energiya va ekoturizm sohasidagi qo‘shma loyihalarni qo‘llab-quvvatlash orqali atrof-muhitni muhofaza qilish tashabbuslariga sodiqligini allaqachon namoyon etmoqda. Islom bank ishi va “halol” standartlarini joriy etish sohasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi bosqichi ham qiziqarli bo‘lib, bu O‘zbekistonning jahon islom moliyaviy tuzilmalariga integratsiyalashuvi istiqbollarini ochadi.

Albatta, kelishuv va tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yanada yaqinlashtirish uchun mustahkam asos bo‘ladi. Mazkur tashrif nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni, balki O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning muhim ishtirokchisi sifatidagi mavqeini ham mustahkamlaydi.

Mars SARIYEV,
siyosatshunos (Qirg‘iziston):

— O‘zbekiston, jahon reytingida qayd etilganidek, Markaziy Osiyoda eng jadal rivojlanayotgan davlat va aytish mumkinki, Markaziy Osiyoning iqtisodiy “yo‘lbarsi” hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Osiyo yo‘lbarsi” deya e’tirof etiladigan Malayziyaga tashrif buyurgani esa juda mantiqiy tuyulmoqda.

Shu bois, fikr-mulohazalar, tajriba va mutaxassislar almashinuvi, iqtisodiy-innovatsion tashabbuslar muhim ahamiyatga ega. O‘ylaymanki, bu tajriba almashinuvi har ikki mamlakat iqtisodiyoti rivojiga yanada turtki beradi.

Ma’lumki, dunyoda global dinamika o‘zgarmoqda va Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlari iqtisodiy yuksalishni boshdan o‘tkazyapti.

Shunday sharoitda, menimcha, bu tasodifiy tashrif emas va imzolangan salmoqli hujjatlar to‘plami ham O‘zbekiston, ham Malayziya taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradi.

Jirayud SINTUPXAN,
Chulalongkorn universiteti huzuridagi Janubiy Osiyo tadqiqotlari markazi direktori, professor (Tailand):

— O‘zbekiston — Malayziya sammiti O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarda burilish davri bo‘ldi. Tailanddagi manfaatdor tomonlar siyosiy va iqtisodiy konstruktiv hamkorlik imkoniyatlaridan mamnun va kelajakdagi hamkorlikka umid qilmoqda. Ushbu tashrif har ikki davlatga sezilarli foyda keltirishi mumkin bo‘lgan muloqotni kengaytirish uchun yangi eshiklarni ochadi.

Men O‘zbekiston va Janubi-Sharqiy Osiyoni, ayniqsa, musulmon jamoalarini bog‘laydigan tarixiy va madaniy aloqalarga xayrixohman. Oliy ta’limda, ayniqsa, islomshunoslik va madaniy almashinuv yo‘nalishlarida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari faol davom ettirilishi kerak bo‘lgan istiqbolli jabhalardir. Madaniy almashinuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u xalqlarimiz o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi va umumiy merosni chuqurroq anglashga ko‘maklashadi. Madaniy tashabbuslar bilan birgalikda ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratilishi har ikki jamiyatni boyitibgina qolmay, balki umumiy sheriklikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bu hamkorlik nafaqat iqtisodiy manfaatlarni, balki madaniyat va ta’lim sohalaridagi aloqalarni ham qamrab oluvchi yanada chuqurroq munosabatlarga mustahkam asos bo‘ladi. O‘ylaymanki, ushbu aloqalarni rivojlantirish O‘zbekistonga ham, Malayziyaga ham, Tailandga ham kelgusida manfaat keltiradigan mustahkam sheriklikka poydevor yaratadi.

Viktor KIM,
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti ilmiy xodimi:

— O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalar xalqaro munosabatlar amaliyotida davlatlarning strategik maqsadlari tarixiy meros va ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash, shuningdek, ikki xalq va kelajak avlod farovonligi yo‘lida iqtisodiy rivojlanish masalalarida bir-biriga to‘g‘ri keladigan muvaffaqiyatli misoldir. O‘zgarib borayotgan dunyoning bugungi murakkab sharoitlarida O‘zbekiston va Malayziya yetakchilari o‘z davlatlarining rivojlanish istiqbollari haqida aniq tasavvurga ega. Shuningdek, O‘zbekiston va Malayziya rahbarlari tomonidan amalga oshirilayotgan “O‘zbekiston — 2030” va “Malayziya Madani” strategik dasturlarining maqsad va vazifalari o‘xshashdir. Ikki davlat manfaatlarining o‘xshashligi o‘zaro hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish istiqbollari uchun ishonchli zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Malayziyaga rasmiy tashrifi va Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim bilan o‘tkazilgan samarali muzokaralar ikki tomonlama munosabatlar rivojiga qo‘shimcha sur’at bag‘ishlaydi hamda mintaqalararo hamkorlikka yo‘l ochadi. Ikki davlat yetakchilari o‘zaro munosabatlarning rivojlanishi Markaziy Osiyo va ASEAN mintaqalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish uchun ham yangi imkoniyat va istiqbollar ochishini yaxshi tushunadi. “Markaziy Osiyo — ASEAN” formatida tashqi ishlar vazirlari darajasidagi muloqot platformasini yaratish kabi istiqbolli rejalar Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohimning 2024-yilda O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida ham muhokama qilingan edi.

Yanvar oyida o‘tkazilgan “Muloqotdan — harakat sari: O‘zbekiston va Malayziya strategik hamkorlik yo‘lida” mavzusidagi yetakchi tahlil markazlari va tadqiqot tuzilmalari vakillari ishtirokidagi davra suhbati, O‘zbekistonning sayyohlik salohiyati va madaniy merosi taqdimoti, ikki mamlakat yetakchi universitetlari rektorlari forumi va boshqa tadbirlar ikki tomonlama munosabatlar yaqin kelajakda strategik darajaga chiqishidan guvohlik bermoqda.

“Dunyo” AA

Lyu SYUY,
Jenmin universiteti qoshidagi Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha markaz direktori o‘rinbosari (Xitoy):

— Ushbu tashrif mamlakatning pragmatik tashqi siyosati va mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish istagidan dalolat beradi.

An’anaga ko‘ra, O‘zbekiston rahbarining tashrifi doirasida Malayziyaning yetakchi kompaniyalari vakillari bilan uchrashuv, ikki mamlakat ishbilarmon doiralari vakillari ishtirokida biznes-forum tashkil etildi. Bu O‘zbekistonning savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni mustahkamlash, mamlakat iqtisodiyotiga Malayziya sarmoyasini jalb etish tarafdori ekanini ko‘rsatadi.

Uchrashuvlar chog‘ida tovar ayirboshlash hajmini oshirish maqsadida Imtiyozli savdo to‘g‘risidagi bitimni ishlab chiqish, o‘zaro sanoat ko‘rgazmalarini o‘tkazish, Sanoat kooperatsiyasi dasturini qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Davlat rahbarlari 2025-2026-yillarni O‘zbekiston — Malayziya sherikligini innovatsion rivojlantirish davri deb e’lon qilishga kelishib olgani e’tiborga loyiqdir.

Tomonlar iqtisodiy hamkorlikning yangi modeli ustuvor yo‘nalishlari sifatida neft-kimyo, elektronika va yarimo‘tkazgich sanoati, innovatsion sanoat, “aqlli” qishloq xo‘jaligi, “yashil” energiya, ziyorat turizmi va boshqalarni belgilab oldilar.

Shubhasiz, Malayziyaning iqtisodiy rivojlanish va sarmoyalarni jalb etish borasidagi tajribasini hisobga olgan holda, ushbu maqsadlarga erishishda Malayziya tomoni bilan muvaffaqiyatli hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Tashrif, shubhasiz, ikki tomonlama hamkorlikka yangi sur’at bag‘ishlaydi, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

> **O‘zbekiston, jahon reytingida qayd etilganidek, Markaziy Osiyoda eng jadal rivojlanayotgan davlat va aytish mumkinki, Markaziy Osiyoning iqtisodiy “yo‘lbarsi” hisoblanadi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Osiyo yo‘lbarsi” deya e’tirof etiladigan Malayziyaga tashrif buyurgani esa juda mantiqiy tuyulmoqda.**

Navqiron o‘g‘lonlarning omadini izlab, uzoq safarga otlangani bilan boshlanadigan ertaklarni ko‘p eshitganmiz. Balki aksariyat tengdoshlarim ilgari zamonda ertaklar ortidan quvib, ishlash, davlatmand bo‘lish uchun olis shahar yoki o‘zga yurtlarga yuz burgandir.

Kambag‘allikdan farovonlik sari

MAHALLA BANKIRLARI: YANGI TIZIMDAN KUTILAYOTGAN SAMARA

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ammo hozir daromadli biror kasbning boshini tutish yoki boy ishbilarmon bo‘lish uchun mahallangizdan nariga chiqishingiz shart emas. Boisi, yurtimizda aholi vakillarini kambag‘allikdan chiqarish, bandligini ta’minlash bo‘yicha shunday tizim yo‘lga qo‘yilganki, tadbirkorlik qilishni istaysizmi, dehqonchilik qo‘lingizdan keladimi yoki xizmat ko‘rsatish sohasiga qiziqishingiz bormi — istalgan yo‘nalishda ish boshlashingiz uchun “mahalla yettiligi” joningizga ora kiradi. Xususan, bandlik, aholini tadbirkorlikka jalb qilish masalalarida mahalladagi hokim yordamchisi, soliq inspektori, yoshlar yetakchisi, ijtimoiy xodim xalqimiz vakillariga zarur yordam ko‘rsatmoqda.

Qaysi sohada ish boshlashni niyat qilmang, birinchi o‘rinda mablag‘, boshlang‘ich investitsiya masalasi o‘rtaga chiqadi. Bu borada yaqinda faoliyati yo‘lga qo‘yilgan mahalla bankirlari og‘iringizni yengil qiladi.

Joriy yilning 3-fevral kuni aholi bandligini ta’minlash va investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan Prezidentimiz huzurida o‘tkazilgan yig‘ilishda keltirilgan raqamlardan yilning ilk oyidanoq yuqoridagi fikr o‘z amaliy isbotini topayotganiga amin bo‘lamiz.

Ma’lumotlarga ko‘ra, yanvar oyida 277 ming fuqaro ishli bo‘lgan. Shundan 91 ming nafari doimiy ishga joylashgan, 153 ming nafari tadbirkorlikka jalb qilingan. Ishli bo‘lgan fuqarolarning katta qismi tadbirkorlikka jalb qilingani ham yangi tizimning muvaffaqiyatli yo‘lga qo‘yilayotganidan darak beradi.

Shuningdek, 2025-yilda 5 million 200 mingdan ziyod aholi bandligini ta’minlash, 1,5 million odamni kambag‘allikdan chiqarish reja qilingan.

Ushbu maqsadga erishish yo‘lida Prezidentimizning shu yil 17-yanvar kuni imzolangan “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qonuniy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu qarorda 5 million 200 ming kishining qanday, qayerda, qaysi tashkilot nazoratida bandligi ta’minlanishi aniq belgilab qo‘yilgan.

Hujjatga asosan, 3 million 600 ming kishi banklar yordamida ishli bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Shundan 2 million 100 ming aholini tadbirkorlikka jalb qilish, 1 million 470 ming nafarini esa doimiy ishga joylashtirish orqali bandligi ta’minlanadi.

Shu maqsadda yil avvalida 208 ta tuman va shahar hokimlari hamda bank rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash hamda daromadini oshirish bo‘yicha hamkorlik shartnomalari imzolanib, har bir mahalla bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar belgilab olindi. Unga ko‘ra, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholini tuman hokimligi joy va kerakli infratuzilma bilan ta’minlaydi. Banklar esa ularning ish boshlashi uchun mablag‘ ajratadi.

Yangi tizimga ko‘ra, “online-mahalla.uz”, “bank-kredit.uz” va “soliq.uz” axborot tizimlari integratsiya qilinib, mas’ullarga yuklatilgan vazifalar ijrosi kunlik tahlil qilib boriladi hamda faoliyati qoniqarsiz bo‘lgan rahbarlarga qat’iy chora ko‘riladi. Bu esa hech bir mas’ulning xo‘jako‘rsinga ishlashiga yo‘l qo‘yilmasligi, bajarilgan ish va uning natijasi qat’iy nazoratga olinishini bildiradi. Shuningdek, ikki mas’ul tashkilotning o‘zaro kelishuv orqali ishlashi xalqning ikki idora o‘rtasida sarson-sargardon bo‘lishining oldini oladi.

Hakim YO‘LDOSHEV olgan suratlar.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yuqoridagi hujjatga binoan, yana bir yangi mexanizm — “Mahalla loyihasi” dasturi yo‘lga qo‘yiladi. Unga ko‘ra, tadbirkorlikda ishonchni qozongan oilaviy tadbirkorlik dasturlarida muvaffaqiyatga erishgan aholiga ko‘proq muddatga kattaroq hajmda mablag‘ ajratilishi belgilandi. Qolaversa, har bir mahallada kamida 10 ta xonadon uchun “loyiha paketi” yetkazib beriladi. Tahlillarga ko‘ra, ushbu paketlar orqali oilalar 60-70 million so‘mdan kam bo‘lmagan yillik daromadga ega bo‘ladi. Bu imkoniyat oilaviy tadbirkorlarning keyingi bosqichga ko‘tarilishiga tramplin vazifasini bajaradi.

Albatta, ushbu jarayonda mahalla bankirlari aholi vakillari bilan bankni bog‘lab turuvchi asosiy bo‘g‘inga aylanadi. Mahalladagi tadbirkorlar faoliyatida bank masalalari bo‘yicha duch keladigan muammolarini hal etib, startap loyihalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladi.

Ayni paytda har to‘rtta mahallaga bittadan mahalla bankiri biriktirilib, joylarda 2 ming 500 ga yaqini faoliyat boshladi. Shuningdek, ularga ko‘makchi sifatida har bir mahallada “yordamchi agentlar” tayinlandi.

Mahalla bankirlari bank tizimining eng quyi bo‘g‘ini bo‘lib, “xonadonbay” ishlaydi. Har bir oilaga kirib borib, oilaning ijtimoiy holatini o‘rganadi va ularni tadbirkorlikka jalb qiladi.

Mahalla bankirlarining vazifasi shunchaki aholiga tadbirkorlik uchun kredit olishiga ko‘maklashishdan iborat emas. Sababi, boshlang‘ich sarmoya to‘g‘ri yo‘naltirilmasa, startap loyihalar tez orada bankrot bo‘lishi hech gap emas. Biznes yuritish ham o‘ziga yarasha iqtisodiy bilim va ko‘nikmalar talab qiladi. Bankirlar esa ayni shu yo‘nalishda mutaxassisdir.

Shu bois, mahalla bankirlari zimmasiga tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lganlarning g‘oyalarini o‘rganib, mahalla infratuzilmasi, biznes imkoniyatlarini tahlil qilgan holda manfaatli tadbirkorlik loyihalariga aylantirish, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish vazifalari ham yuklatildi.

Ular aholiga moliyaviy tartiblarni, mahsulot va xizmatlarni sotish va sotib olishni o‘rgatishi, aholi vakillarining o‘z ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib olguncha moliyaviy maslahatchisi, kerakli tavsiyalar beruvchi hamkoriga, ularning turli iqtisodiy muammolarini hal qiluvchi insoniga aylanishi talab etilmoqda.

“O‘zini o‘zi band qilgan shaxs — yakka tartibdagi tadbirkor — kichik biznes — o‘rta biznes” zanjiri asosida tadbirkorlikning har bir bosqichida moliyaviy xizmatlar ko‘rsatib boriladi.

Mahalla bankirlari aholi va tadbirkorlarni doimiy ravishda “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash”, “Oilaviy tadbirkorlik” hamda “Biznesga birinchi qadam” dasturlari bilan tanishtirib, ularda aholiga berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlarni tushuntirib borishi darkor.

Shuningdek, mahalla bankirlariga foizsiz, garovsiz kreditlarga muhtoj oilalar ro‘yxatini shakllantirib, ularga noutbuk, kichik ishlab chiqarish uskunalari, ko‘chma do‘konlar, motoroller, skuter va boshqa “pultopar” uskunalar bilan ta’minlash vazifasi ham yuklatilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, mahalla bankirlari bankning joylardagi ko‘z-qulog‘i, chaqqon qo‘l-oyog‘i vazifasini bajaradi. U yerdagi kambag‘al oilalarning qutqaruvchisiga, o‘z omadini izlab yurgan insonlarning orzu-umidlarini bank va davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga ro‘yobga chiqaradigan qahramonlarga aylanishi talab etilmoqda.

HIMOYASIZ BIZNES ERKIN RIVOJLANA OLMAYDI

Nuqtayi nazar

Dilmurod QOSIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil

Prezidentimiz joriy yil 3-fevral kuni aholi bandligini ta’minlash va investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda “2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘ladi”, deya ta’kidlagani bejiz emas. Binobarin, bugun O‘zbekistondagi islohotlardan ko‘zlangan maqsad mamlakatimizni iqtisodiy rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishdir. Bunda zamonaviy, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara oladigan, shu bilan birga, yuz minglab fuqaroni ish bilan band qilish imkonini beradigan kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlik sohasini qo‘llab-quvvatlash, shubhasiz, muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoit yaratish kerak.

Xususiy biznes va tadbirkorlik investitsiyasiz harakatga kelmaydi. Investitsiya deganda, faqat pulni emas, balki yangi tajriba, bilim va amaliyot kirib kelishini ham tushunish kerak. Shu jihatdan xorijiy investorlarning O‘zbekiston bozoriga jalb etilishi katta ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda xorijiy investitsiya jalb qilishni rag‘batlantirish, ushbu yo‘nalishdagi biznes subyektlarini har tomonlama himoyalash va qo‘llab-quvvatlash borasida ham ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi. Xususan, tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligini ta’minlash va faoliyatiga asossiz aralashish holatlariga qarshi qat’iy choralar ko‘rish maqsadida 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes ombudsman) instituti ta’sis etildi. Biznes ombudsman instituti davlat va tadbirkorlar o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini o‘tashi xalqaro amaliyot misolida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Mazkur institutlar 50 dan ortiq davlatda tashkil etilgan va samarali faoliyat yuritib kelmoqda. Tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni sudgacha hal etish uchun xizmat qiladi.

Biznes ombudsman tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan mustaqil organdir. Tadbirkorlardan kelib tushgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish va muammolarining qonuniy yechim topishida yordam berish, davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga noqonuniy aralashuviga qarshi kurashish, biznes uchun qulay sharoit yaratishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasida konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yish uning asosiy vazifalari sirasiga kiradi.

Biznes ombudsman faoliyati mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, investitsiyaviy muhit yaxshilanadi. Bu esa xorijiy va mahalliy investitsiya jalb qilinishiga olib keladi. Korrupsiya va byurokratiyaga qarshi kurashish orqali sog‘lom raqobat muhiti yaratiladi. Tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratish iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi. Tadbirkorlar va davlat organlari o‘rtasidagi ishonchsizlikni kamaytirish bilan ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

Mazkur institut ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, Yevropa Ittifoqi davlatlari, AQSH, Kanada, Yaponiya, Janubiy Koreyada mavjud. Ularning faoliyati turlicha bo‘lishi mumkin, ammo asosiy maqsadi bitta — tadbirkorlar huquqlarini himoya qilish va biznes uchun qulay sharoit yaratish. Misol uchun, Yevropa Ittifoqida Yevropa biznes ombudsmani faoliyat yuritadi. U a’zo davlatlardagi tadbirkorlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqadi va huquqlarini himoya qiladi.

Jahon bankining “Doing Business” reytingida biznes ombudsman faoliyat yuritadigan mamlakatlar yuqori o‘rin egallaydi. Misol uchun, Yangi Zelandiya, Singapur va Daniya kabi mamlakatlarda biznes ombudsman instituti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan va ular “Doing Business” reytingida yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda.

O‘zbekistonda biznes ombudsman instituti faoliyat yurita boshlaganidan buyon tadbirkorlarning murojaati soni yildan yilga oshib bormoqda. Bu esa ularning huquqlari himoya qilinishida biznes ombudsmanga ishonchi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Ishonchli himoyasiz biznes erkin tarzda mavjud bo‘lishi va rivojlanishi mumkin emas. Shuning uchun O‘zbekistonda ishbilarmonlar huquqlarini himoya qilish davlat siyosati darajasigacha ko‘tarildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning yangi va samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida institutsional va tuzilmaviy islohotlar amalga oshirildi. Qonunchilik bazasi kuchaytirildi, soliq yuki sezilarli darajada kamaydi. Bu esa mamlakatda kichik va o‘rta biznes rivojlanishiga, yangi tadbirkor qatlami paydo bo‘lishiga hissa qo‘shib kelyapti.

Jahon iqtisodiyotidagi shiddatli o‘zgarishlar, raqobatning kuchayishi, yangi imkoniyatlar va muammolarning yuzaga kelishi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekistonda bu borada keng ko‘lamli ishlar bajarilmoqda. 2024-yilning o‘zida tadbirkorlar faoliyati uchun muhim bo‘lgan 5 ta qonun, 101 ta farmon va qaror qabul qilindi.

Davlatimiz rahbarining “Halol tadbirkor doimo davlat himoyasida, mening himoyamda”, degan so‘zlari amalda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Tadbirkorlarning huquqlari buzilishiga qarshi tizimli kurashishning samarasini oshirish, tadbirkorlik faoliyatining himoyasini yanada takomillashtirish, ishbilarmonlarning haq-huquqlari, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir.

Biznes ombudsman Prezidentga hisobdor bo‘lgan organ sifatida mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirishdagi to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritadi. Bu takliflar bevosita biznes vakillarining murojaatlari asosida tayyorlanadi.

O‘tgan yili biznes ombudsmanga tadbirkorlardan 9127 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 51 foizi bo‘yicha tadbirkorlarning huquqlari tiklandi, qolgan murojaatlar bo‘yicha esa huquqiy tushuntirish berildi. Murojaatlarning aksariyati soliq, yer, kadastr va arxitektura, bank, kredit, tekshiruvlar, sud qarori ijrosi va boshqa masalalarga oid bo‘lgan.

Shuningdek, “Tadbirkor virtual ofisi” orqali 9059 ta murojaat qabul qilinib, 10 ming 419 ta masala bo‘yicha yechim topildi. Ularning 18 foizi bank va kredit, 12 foizi soliq, 10 foizi mansabdor shaxslarning xatti-harakati, 10 foizi sud va boshqa organ hujjatlarini ijro etish, 10 foizi yer yoki bino ajratish, kadastr, 8 foizi infratuzilma va qolgan 32 foizi boshqa masalalarga tegishli.

Murojaatlar natijasida tadbirkorlarga 34,5 milliard so‘mdan ortiq kredit ajratilishi, 17 milliard so‘m undirilishi va 15,5 milliard so‘m miqdorida asossiz to‘langan soliq mablag‘i qaytarilishiga ko‘maklashildi. Ko‘rib chiqilgan murojaatlarning 13 foizida muddat buzilgani aniqlangan. Qonun buzilishi holatlari bo‘yicha 16 ta taqdimnoma kiritilib, mansabdor 144 shaxsga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi va 85 mas’ul xodimga intizomiy jazo choralari qo‘llandi.

Biznes ombudsman devoni tomonidan tadbirkorlik sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha 10 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi, jumladan, 4 ta qonun, Prezidentning 4 ta farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori ishlab chiqildi. 832 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi huquqiy ekspertizadan o‘tkazilib, ular bo‘yicha 784 ta taklif va e’tiroz bildirildi. 21 ta tahliliy ma’lumotnoma asosida tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan 100 dan ortiq taklif tayyorlandi. Bularning barchasi tadbirkorlar huquqlari doim himoyada, ularni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekiston siyosatining asosiy va ustuvor yo‘nalishi ekanini anglatadi.

Munosabat

Anvar NURMATOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Mamlakatimizda kambag‘allik ko‘p yillar davomida yopiq mavzu bo‘lib keldi. Bu ibora o‘rniga “kam ta’minlanganlik” tushunchasidan foydalandik. Keyingi sakkiz yildagi ochiqlik siyosati tufayli kambag‘allik darajasi ilk bor e’tirof etildi.

2016-yildan boshlab xalq bilan muloqotning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi, inson qadri va manfaatlari islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi. 2020-yilda ilk marotaba jamiyatda kambag‘allik borligi tan olinib, o‘tgan davrda uni qisqartirish bo‘yicha aniq tizim amaliyotga tatbiq etildi.

2025-YIL – KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRISHda ENG MUHIM va HAL QILUVCHI YIL

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Kambag‘allikni bartaraf etishning eng to‘g‘ri va eng samarali usuli aholi bandligi darajasini oshirishdir. Odamlar uchun ularga munosib va daromadi yuqori ish o‘rinlarini yaratish — maqsad sari dadil qadam. Buning uchun qishloq joylarda tadbirkorlikka zarur shart-sharoitlar, infratuzilma, biznesga qulay muhit yaratish kerak. Ya’ni bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yuritish, degani.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlarning pirovard maqsadi kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish orqali inson qadrini yuksaltirishga qaratildi. Xalqimiz turmush sharoitini yaxshilash, odamlarni rozi qilish yo‘lida katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi.

Aholini ijtimoiy himoya dasturlari bilan qamrashni kengaytirish va oilalarni og‘ir hayotiy holatlardan olib chiqish, kam ta’minlangan oilalarni aniqlash va ularga manzilli yordam ko‘rsatish maqsadida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi.

O‘tgan qisqa davrda kambag‘allikni qisqartirish sohasida o‘ziga xos milliy dastur ishlab chiqildi. Bugun u izchillik bilan hayotga tatbiq etilayotir. O‘z vaqtida ko‘rilayotgan zarur choralar tufayli yurtimizda kambag‘allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga kamaytirilgan bo‘lsa, 2024-yil yakuni bilan 8,9 foizga tushirildi.

Hujjat asosida 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash dasturi va uning doirasida maqsadli ko‘rsatkichlar ham tasdiqlandi. Dasturning amalga oshirilishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 126 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, ming-minglab yangi ish o‘rni yaratish, biznes muhitini yaxshilash, asosiysi, odamlarning real daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimizning 2024-yil 23-sentabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi ishlar rivojini yangi bosqichga olib chiqishda muhim dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Unga ko‘ra, 2025-yilda 1 million aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosati hamda barcha davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

Joriy yil 3-fevral kuni aholi bandligini ta’minlash va investitsiyalar jalb qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda davlatimiz rahbari tomonidan kambag‘allikka qarshi kurashish bo‘yicha islohotlarning yangi sahifasi ochib berildi deyish mumkin.

Prezidentimiz aytganidek, “2025-yil bandlikni ta’minlash va kambag‘allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yil bo‘ladi”. Chunki bu yil 5 million 200 ming aholini band qilib, 1,5 million odamni kambag‘allikdan chiqarish, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etib, eksportni 30 milliard dollardan oshirish hisob-kitob qilingan.

Yig‘ilishda bu borada boshlangan ishlar va dastlabki natijalar haqida axborot berildi. Qayd etilganidek, yanvar oyida 277 ming fuqaro ishli bo‘lgan. Shundan 91 ming nafari doimiy ishga joylashgan, 153 mingi tadbirkorlikka jalb qilingan.

Darhaqiqat, qadriyatlarimiz va davlat ko‘magida kambag‘allikka barham berish mamlakatni taraqqiyotga eltuvchi eng to‘g‘ri yo‘ldir. Albatta, davlat ko‘magi, ya’ni ijtimoiy himoya, iqtisodiy imkoniyat va ijtimoiy mas’uliyat birga taqdim etilgandagina ijobiy natijalar beradi.

Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha 32 ta yo‘nalishda yangi yondashuvlar joriy etilmoqda. Vazirlik va hokimliklar mutaxassislaridan iborat guruhlar Xitoyga borib, tajriba almashib keldi. Endi joylardagi imkoniyatlar aholiga tushuntirilib, daromad topishga ko‘maklashiladi.

Ish o‘rinlari yaratish va investitsiya jalb qilish o‘zaro bog‘liq jarayon. Bu yil qariyb 14 milliard dollarlik 8 mingta loyihani amalga oshirib, 272 mingta doimiy ish joyi yaratish rejalashtirilgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘tgan oyda yurtimizga 3 milliard dollar xorijiy investitsiya kelgan. Fevral oyida ham shuncha investitsiya olib kelish, 623 ta loyihani ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

Bu kichkina raqam emas. Aslida, gap raqamning katta yoki kichikligida ham emas. Hamma gap jalb etilayotgan investitsiyalardan kutilayotgan samarada. Binobarin, bu loyihalar hisobiga ming-minglab yangi ish o‘rinlari yaratiladi, demakki, shuncha oilalarda yashovchi bir necha o‘n minglab yurtdoshlarimizning yashash sharoitlari yaxshilanadi, real daromadlari yanada oshadi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 17-yanvardagi “2025-yilda aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori odamlarning bandligini ta’minlash, yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish va kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Zero, hujjatga asosan, 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash dasturi doirasida 5,2 million fuqaroning ish bilan band qilish belgilandi. Ya’ni tadbirkorlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, muammolarini hal etish, faoliyatini kengaytirish hisobiga 1 million 470 ming, ishsizlarni mavjud bo‘sh ish o‘rinlariga joylashtirish orqali 430 ming, har bir mahallada o‘rtacha 40 tadan, jami 377,6 mingta mikroloyihani amalga oshirish evaziga esa 755 ming ish o‘rni yaratiladi.

“Mahalla loyihasi” doirasida soddalashtirilgan tartibda loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi kredit mahsulotlarini joriy qilish orqali 250 ming, hududlarda drayver loyihalarni ishga tushirish evaziga 122 ming, mikrosanoat markazlarini barpo etish loyihalari doirasida 21 ming, aholiga yer maydonlarini ijaraga berish, jumladan, “kompaniya — kooperativ — dehqon xo‘jaligi” tamoyili asosida kooperativlar tashkil etish evaziga 300 ming fuqaro daromadli mehnat bilan ta’minlanadi.

Aholi tomorqasidan samarali foydalanishni tashkil etish, fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash orqali 1 million 169 ming, investitsiya loyihalari asosida 290 ming, qurilish sohasidagi loyihalarni amalga oshirish evaziga esa 169 ming yurtdoshimizni daromadli ish bilan ta’minlash maqsad qilingan.

Ayonki, kambag‘allikni kredit berish yoki pul tarqatish bilan qisqartirib bo‘lmaydi. Shuning uchun kambag‘al oilalar a’zolarini kasb-hunarga o‘qitish xarajatlarini qoplab berish bo‘yicha 2025-yil 1-maygacha vaucher tizimi joriy qilinadi. 1-fevraldan esa kasblarga o‘qitish maqsadida ajratiladigan stipendiyalar nogironligi bo‘lgan shaxslarga muddati 3 oydan ko‘p davom etadigan o‘quv kurslariga qabul qilingan kambag‘al oilalar reyestridagi oilalarning ishsiz a’zolariga to‘lanadi.

Mazkur tizim dastlab 1-fevraldan Samarqand viloyati va Toshkent shahrida sinovdan o‘tkaziladi. Mahallalarda kambag‘al oila a’zolarining ishlash ishtiyoqi va tashabbuskorligini oshirishga qaratilgan “Farovon hayotga ilk qadam”, “Ishonch” loyihalari va “Ma’rifat orqali kambag‘allikni qisqartirish” dasturi amalga oshiriladi.

Hujjat asosida 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta’minlash dasturi va uning doirasida maqsadli ko‘rsatkichlar ham tasdiqlandi. Dasturning amalga oshirilishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash maqsadida 126 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Bu esa, o‘z navbatida, ming-minglab yangi ish o‘rni yaratish, biznes muhitini yaxshilash, asosiysi, odamlarning real daromadini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yig‘ilish hamda mazkur qarorda belgilangan vazifalardan ko‘rinib turibdiki, kambag‘allikni kamaytirish yo‘lida iqtisodiy o‘sishning imkon qadar inklyuzivligini ta’minlash, iqtisodiyotdagi yutuqlar xalq orasida teng taqsimlanishiga va bundan aholining zaif qatlamlari bahramand bo‘lishiga erishish maqsad qilingan. Faqat shu yo‘l samarali natijalarga olib keladi.

Prezident topshirig‘i – amalda

SURXONDARYO VA TOSHKENT ORASIDAGI MASOFA 146 KILOMETRGA QISQARADI

Boshlanishi 1-betda

Bugun qurilish obyekti sifatida mazkur avtomobil yo‘lining Darband mahallasi hududidagi qismida maxsus texnikalar yordamida beton qoplamasi yotqizilmoqda. “Darband — Boysun — Elbayon” avtomobil yo‘lining rekonstruksiya ishlari Ozarbayjonning “Lankaran Yol Tikinti” korxonasi tomonidan bajarilmoqda.

— Ozarbayjonda yo‘l qurilishi sohasida yetakchi bo‘lgan kompaniyamiz Surxondaryo viloyatining go‘zal Boysun tumanidan boshlanuvchi yirik yo‘l loyihasini amalga oshirmoqda, — deydi “Lankaran Yol Tikinti” kompaniyasining yo‘l qurilishi loyihasi menejeri Georgiy Silogadze. — Shuning barobarida tumanlar hududida loyiha doirasida xomashyo ta’minotini yo‘lga qo‘yish va ishlab chiqarish maqsadida qator kichik korxonalar ham barpo etdik. Biz asosan sulfidli sementdan ko‘proq foydalanamiz. Chunki tog‘li Boysun tumani hududida sel ko‘p kelishi va yerning sho‘rlanish darajasi yuqoriligi bois, shu usulni qo‘llashga qaror qilganmiz. Buning hammasi loyihada batafsil ko‘rsatilgan.

Surxon vohasidagi xalqaro ahamiyatga ega mazkur yo‘l M–39 va M–41 avtomagistrallarini birlashtiradi. Poytaxtga va markaziy shaharlarga yuklarning yetkazilish vaqtini sezilarli qisqartirishga xizmat qiladi.

— Ishlar to‘rt faslda ham tingani yo‘q. Ayni kunlarda ushbu loyiha bo‘yicha 4R–105 “Darband — Boysun — Elbayon” avtomobil yo‘lining 5-70-kilometri va 4R–100 “Manguzar — Jarqo‘rg‘on — Bandixon — Oltinsoy — Denov” avtomobil yo‘lining 128-174-kilometri rekonstruksiya qilinmoqda, — deydi mutaxassis Foziljon Jamoliddinov. — Asosiysi, loyiha tufayli Surxon vohasidan poytaxtga olib boruvchi avtomobil yo‘li 146 kilometrga qisqaradi. Chunki aylanma yo‘llar o‘rnini to‘g‘ri kesib chiquvchi ravon yo‘l egallaydi. Yo‘l qurilishida sifat ko‘rsatkichlariga jiddiy e’tibor qaratilyapti.

Azaldan yo‘lsozlik ulug‘, shu bilan birga, mashaqqatli kasb sifatida baholangan. Chunki qadimdan kichik bir yo‘l yoki ko‘prik bunyod etilishi tufayli qanchadan qancha odamlarning mushkuli oson bo‘lib, manzili yaqinlashgan. Bugun esa buning ahamiyati juda yuqori. Hozir so‘z yuritilayotgan qurilish obyektida 500 dan ziyodroq mahalliy ishchi va 7 ta davlatning yuqori malakali yo‘lsozlari mehnat qilyapti. Yuzlab maxsus texnika jalb qilingan.

Shuningdek, xalqaro ahamiyatdagi yo‘llar yoqasida muhim infratuzilma ham shakllanyapti. Jumladan, Boysun tumanidagi Inkobod mahallasida “Muqtadir-ixtisos-ta’mir” xususiy korxonasi tomonidan kemping xizmatlari ko‘rsatuvchi turizm majmuasi qurilyapti. Mazkur loyihaning umumiy qiymati 17,5 milliard so‘m. Majmua mehmonxona, umumiy ovqatlanish va avtomobillarga yonilg‘i quyish shoxobchasi, elektromobillarni quvvatlash stansiyasi kabi obyektlarni o‘z ichiga oladi. Loyiha ishga tushgach esa vohalik mahalliy yoshlarning 45 nafarining bandligi ta’minlanadi. Bajarilayotgan bu kabi ishlar nafaqat mahalliy aholining, balki ushbu ravon yo‘lda harakatlanadigan barcha haydovchilarning minnatdorligiga sabab bo‘ladi.

Surxondaryo viloyati hududida jami 16 ming 170 kilometr uzunlikdagi avtomobil yo‘li mavjud. Shundan 2843 kilometri, ya’ni 18 foiz qismi umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llaridir. Qolgan 13 ming 327 kilometri yoki 82 foizi esa mahalliy hokimliklar tasarrufidagi hududiy, ya’ni xo‘jaliklararo qishloq, shahar hamda aholi punktlari ko‘chalari.

— Viloyat avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi hamda uning tarkibidagi korxonalar tomonidan yo‘l infratuzilmasini yanada yaxshilash yuzasidan 647,4 kilometr uzunlikdagi avtomobil yo‘li hamda 2 ta ko‘prikda 483,4 milliard so‘mlik yo‘l qurilish ishlari bajarildi, — deydi Surxondaryo viloyati avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Odil Mamatov.

Keyingi yillarda yangilanishlar nafasi yaqqol namoyon bo‘layotgan Qiziriq tumanining ko‘plab ichki yo‘llarini ta’mirlash ishlari ham jadallik bilan bajarilmoqda. Qiziriq, Jarqo‘rg‘on, Termiz tumanlarini bog‘lovchi R–100 avtomobil yo‘li taxminan chorak asr davomida ta’mirlanmay kelayotgandi. Mazkur yo‘ldan avtomobillar yurishi keskin kamayib ketgandi. Manzil esa uzoqlashdi.

— Yo‘l muammosini Xalq qabulxonasi yechib berdi. Murojaatimizdan so‘ng yo‘lning 12 kilometri to‘liq asfalt bilan qoplandi, — deydi Qiziriq tumani “Gulobod” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Abdurasul Valiyev. — Tumanimizdek olis va chekka hududlardagi bunday ko‘lamli ishlar aholining ertangi kunga ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Denov tumani Namozgoh mahallasi hududidan o‘tuvchi M–41 magistralining qatnov qismida avtomobillar tirbandligi hamda piyodalar yo‘lagi yo‘qligi sabab ko‘ngilsiz voqealar tez-tez sodir bo‘lardi. Bu holatlarning oldini olish maqsadida mahalla ahli mutasaddi idoralarga murojaat qildi. Murojaat Xalq qabulxonasi mutaxassislari tomonidan o‘rganildi. Muammoga yechim topib berildi. Shuningdek, Denov tumanidagi Surxon Diyor va Yoshlik mahallalari maydoni va aholi soni jihatidan ancha katta. Mazkur hududda uzoq yillardan buyon Uzun, Sho‘rchi, Denov tumanlarini bog‘lab turuvchi ko‘prik va mahallaning markaziy ko‘chasidagi avtomobil qatnov yo‘li ham ta’mirtalab edi. Bu noqulaylikdan nafaqat haydovchilar, balki 15 mingdan ortiq odam aziyat chekib kelardi. Aholining murojaatlari o‘rganilib, haqli e’tirozi mutasaddilar tomonidan ijobiy hal etildi. Natijada 4–R 101 G avtomobil yo‘lining 4 kilometrlik qismi joriy ta’mirlandi.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Tibbiyot

TIBBIY SUG‘URTA

Dunyoda aholi soni oshishi barobarida tibbiy xizmatlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ko‘plab xorijiy davlatlarda aholi salomatligini saqlash va tibbiy xizmatlardan foydalanishni ta’minlash maqsadida tibbiy sug‘urta tizimi joriy etilgan. Bu ish bilan asosan xususiy sug‘urta kompaniyalari shug‘ullanadi. Ular faoliyatini tibbiyot muassasalari bilan shartnoma asosida amalga oshiradi. Fuqarolar ushbu sug‘urta kompaniyalariga belgilangan summani to‘lab, sug‘urta polisi oladi va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

NATIJA UCHUN ISHLAYDIMI?

Farhod NE’MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Mamlakatimizda ham tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tish ishlari davom etmoqda. 2021-yili Sirdaryo viloyatida tajriba-sinov sifatida boshlangan ushbu tizimni bosqichma-bosqich 2027-yilgacha butun mamlakatimiz bo‘ylab joriy etish rejalashtirilgan. Ammo kuzatishlardan aholi mazkur tizim haqida to‘liq tushunchaga ega emasligi ayon bo‘lmoqda.

Buni biz bilan suhbatda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi Jizzax viloyati hududiy bosh mutaxassisi Ilhom Norboyev ham ta’kidladi.

— Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasining viloyatdagi vakili sifatida Jizzaxdagi tibbiyot muassasalarining tibbiy sug‘urta tizimiga o‘tkazilishiga bevosita mas’ulman. Qariyb uch yildan beri shu yo‘nalishda ishlayapman. To‘g‘risi, yangi tizimni joriy etish oson kechmayapti. Avvalo, tibbiyot xodimlari, qolaversa, fuqarolarning bu boradagi xabardorligini oshirish, ular orasida tushuntirish ishlarini o‘tkazish, yangi tizim mohiyatini ochib berish kerak. Bu borada viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda ishlayapmiz. Viloyatdagi barcha tibbiyot muassasalariga borib, tibbiyot xodimlari bilan uchrashib, ularga davlat tibbiy sug‘urtasining mazmun-mohiyatini tushuntirdik. Viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi bilan hamkorlikda bir necha bor seminarlar o‘tkazdik. Ushbu mavzuda aholi xabardorligini oshirish bo‘yicha OAV, jumladan, viloyat televideniyesi, radiosida ko‘rsatuv va eshittirishlar berildi. Hududiy va markaziy gazetalarda maqolalar chop ettirdik. Bundan tashqari, mahallalarda aholi bilan uchrashuvlar tashkil qilib, davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga o‘tishning maqsadi va vazifalari haqida keng tushuncha berib kelyapmiz. Ammo tan olish kerak, bu ishlar yetarli bo‘lmayapti. Aholidan tashqari hatto tibbiyotchilarimiz orasida ham davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi bo‘yicha to‘liq tushunchaga ega bo‘lmaganlar bor. To‘g‘ri, tibbiy sug‘urta tizimiga to‘liq o‘tishimizga hali ikki yil vaqt bor. Lekin tibbiyot muassasalari bosqichma-bosqich shu tizimga o‘tmoqda. Belgilangan muddatgacha ham tibbiyot muassasalarimizni, ham aholini davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga o‘tishga to‘liq tayyorlab borishimiz kerak.

Buning uchun, avvalo, odamlarning xabardorligini oshirishimiz darkor. 2027-yildan boshlab sug‘urta tizimidan yurtimizdagi barcha fuqarolar foydalanadi. E’tiborlisi, buning uchun ular pul to‘lamaydi. Ya’ni oddiy tibbiy tekshiruvdan tortib, yuqori texnologiyali murakkab operatsiyalargacha bepul o‘tkaziladi. Faqat shuni to‘g‘ri tushunish kerak, bu yerdagi xizmat aslida nisbiy tushuncha. Zero, fuqaro xizmatidan foydalanayotgan tibbiy muassasa xarajatini Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi to‘laydi.

Misol uchun, Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Jizzax filiali uch yildan beri jamg‘arma bilan hamkorlik qiladi. Ushbu yillar davomida filialda 250 dan ortiq fuqaroda yurak sohasida yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyoti bajarildi. Buning uchun jamg‘arma ushbu filialga 5 milliard so‘mga yaqin mablag‘ to‘lab berdi. Birgina o‘tgan yili imtiyozli 91 bemorda 2 milliard so‘mga yaqin mablag‘ hisobiga jarrohlik amaliyoti o‘tkazilgan.

“Odamlarning xabardorligini oshirishimiz darkor. 2027-yildan boshlab sug‘urta tizimidan yurtimizdagi barcha fuqarolar foydalanadi. E’tiborlisi, buning uchun ular pul to‘lamaydi. Ya’ni oddiy tibbiy tekshiruvdan tortib, yuqori texnologiyali murakkab operatsiyalargacha bepul o‘tkaziladi. Faqat shuni to‘g‘ri tushunish kerak, bu yerdagi bepul tibbiy xizmat aslida nisbiy tushuncha. Zero, fuqaro xizmatidan foydalanayotgan tibbiy muassasa xarajatini Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi to‘laydi.”

Joriy yildan boshlab viloyatdagi 19 ta tibbiyot muassasasi jamg‘arma bilan hamkorlik shartnomasi imzoladi. Bu davlat tibbiy sug‘urtasi tizimiga o‘tish yo‘lida katta qadam bo‘lib, viloyatda tibbiy xizmatlar qamrovini oshiradi. Sug‘urtada moliyalashtirish tizimi ham tubdan o‘zgaradi. Endi faqat bajarilgan ish hajmiga qarab Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasidan mablag‘ o‘tkazib beriladi. Har bir tibbiyot muassasasi o‘zi uchun ishlaydi, pulni o‘zi ishlab topadi. Birlamchi bo‘g‘inda pul aholi jon boshiga qarab to‘lanadi.

Fuqarolar yashash hududi bo‘yicha tibbiyot brigadalariga biriktirilgan. Fuqarolar sog‘lig‘i uchun qayg‘uradigan oilaviy shifokor va 4 patronaj hamshiradan iborat tibbiy brigadalar tashkil etilgan. Har bir brigadaga 2000 kishi biriktirilgan. Shuncha odamning salomatlik ko‘rsatkichi ushbu tibbiyot brigadasining ishlashiga bog‘liq. Tibbiyot brigadalari o‘ziga biriktirilgan aholini endi o‘zlari izlab yuradi, tibbiy ko‘riklarga jalb qiladi. Chunki har bir fuqaro uchun ajratilgan mablag‘ bor, uni olish uchun fuqaro bilan ishlaydi. Hozir tibbiy ko‘rikka boryapsizmi-bormayapsizmi, hech kimning ishi yo‘q. Sug‘urta tizimida bunday bo‘lmaydi. Tibbiy brigadalar aholini tibbiy ko‘rikdan o‘tish vaqti kelganda chaqiradi, kelmasa, borib olib keladi. Chunki yuqorida aytilganidek, unga ajratilgan mablag‘ni olish kerak. Fuqaro tibbiy ko‘rikdan o‘tkaziladi, kerakli tavsiyalar, dorilar beriladi. So‘ng unga ko‘rsatilgan tibbiy xizmatlar elektron tarzda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga yuboriladi. Jamg‘armada ekspertlar ushbu bemorga ko‘rsatilgan yordamni standartlarga muvofiq deb baholasa, 10 ish kunida fuqaroning puli shu muassasaga kelib tushadi.

Statsionarlarda esa pul davolanganlik holatiga qarab to‘lanadi, ya’ni shifoxonalar necha nafar bemorni davolasa, shunga qarab pul oladi. Sug‘urta tizimi birlamchi bo‘g‘inda ham, statsionarda ham natija uchun ishlaydi. Natija deganda, birlamchi bo‘g‘inda surunkali kasalliklar uchramasa, kasalliklar erta aniqlansa, o‘z vaqtida profilaktik ko‘riklar va skrining tekshiruvi o‘tkazilishi, emlash ishlari vaqtida bajarilishi tushuniladi. Statsionarda esa natija shu bemor to‘liq sog‘ayib chiqib ketishiga aytiladi.

Endi fuqarolar Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi mablag‘i hisobidan xususiy klinikalarda ham davolanishi mumkin. Agar xususiy klinikalar Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan talablarga javob bersa, Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi ular bilan shartnoma tuzadi. Bu esa bemorlarda davolanish uchun shifoxonani tanlash imkoniyatini paydo qiladi. Fuqaro xohlasa, davlat shifoxonasida, xohlasa, xususiy klinikada davolanadi. Jamg‘arma esa mablag‘ni o‘sha joyga yo‘naltirib beradi.

Bu, o‘z navbatida, davlat va nodavlat tibbiy muassasalar o‘rtasida sog‘lom raqobat paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Davlat tibbiy sug‘urtasi tizimining joriy etilishi aholi uchun, ayniqsa, kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bemorlarga ayni muddao bo‘lmoqda. Eng muhimi, endi fuqarolar davolanishda ovora-sarson va chiqimdor bo‘lmaydi. Bunga ular bilan suhbatlashib, o‘zingiz ham guvoh bo‘lishingiz mumkin.

Shu gap sabab bo‘ldi-yu, suhbatdoshim hamrohligida viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markaziga yo‘l oldik. Markaz direktori, tibbiyot fanlari doktori, professor Muzaffar Yo‘ldoshev maqsadimizni bilgach, davlat tibbiy sug‘urtasi ham tibbiyot muassasalari, ham bemorlar uchun nihoyatda ahamiyatli ekanini, bunda bemorlarga barcha tibbiy xizmatlar bepul bo‘lsa, tibbiyot muassasalari endi bemorlar salomatligiga befarq emasligini, asosiy e’tiborni natijaga qaratayotganini qayd etdi.

— O‘tgan yili Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan 200 million so‘mlik shartnoma imzolagan edik. Joriy yilda ushbu ko‘rsatkichni 1 milliard so‘mdan oshirmoqchimiz, — deydi Muzaffar Yo‘ldoshev. — Shunga yarasha moddiy-texnik bazamizni rivojlantiryapmiz. Hozircha Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi bilan hamkorlik qilayotgan tibbiy muassasalar ozligi uchun bemorlarda tanlash imkoniyati kamroq. 2027-yildan davlat tibbiy sug‘urtasi to‘liq ishga tushsa, tibbiyot muassasalari orasida kuchli raqobat paydo bo‘ladi. Shunga hozirdan markazimizning imijini yaratishga harakat qilyapmiz. Ayni paytda markazimizda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi mablag‘i hisobidan davolanayotgan o‘nlab bemorimiz bor. Ular bilan muloqot qilishingiz mumkin.

Markaz direktori xonasidan chiqqanimizda qabulxonada turgan bir bemorga ko‘zimiz tushdi.

— Mana shu bemorimiz ham yo‘llanma asosida Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi mablag‘i hisobidan davolanmoqda, — dedi Muzaffar Yo‘ldoshev.

— Davolanayotganimga bir hafta bo‘ldi, — deydi o‘zini Otabek Qo‘chqorov deb tanishtirgan bemor. — Sharof Rashidov tumanining Qahramon mahallasidanman. Birinchi guruh nogironiman. Yangi yildan keyin patronaj hamshira uyimizga kelib, salomatligim yaxshi emasligini bilib, mahalla shifokorimiz bilan maslahatlashib, davolanishim zarurligini aytdi. O‘zi bilan hujjatlarimni olib ketdi. Taxminan bir haftadan so‘ng viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazidan “Sizning joyingiz tayyor, kelib davolanishingiz mumkin”, deb telefon qilishdi. Ertasi kuni kelib, tibbiy tekshiruvdan o‘tib, davolanishni boshladim. Menga shunday yangi tizim joriy etilgani, davolanish bo‘yicha barcha xarajatlar Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi hisobidan to‘lab berilishi aytildi. Oldin ham order asosida bepul davolanganman. Ammo ba’zi dorilarni sotib olishimga to‘g‘ri kelardi. Bu safar unday bo‘lmadi. To‘g‘risi, xursandman.

Mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi keng qamrovli islohotlar doirasida davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilishi sog‘liqni saqlash tizimining yangi bosqichga ko‘tarilishiga, aholi ehtiyojlari samarali ta’minlanishiga, odamlar tibbiyotdan va bugungi kunidan rozi yashashiga xizmat qilmoqda.

Zamon bilan hamnafas

OILAVIY FAYZ TIMSOLI

Ayol jamiyat taraqqiyotiga bevosita va bilvosita daxldor. U oilada ona, opa, singil, farzand, kelin, jamiyatda ishchi, pedagog, doktor, boshqaruvchi, deputat. Xullas, ayolsiz biror faoliyat mavjud emas. Oiladagi muhit, farzandlar tarbiyasi, erkakning matonati va jasorati ayolning ma’naviyati va ma’rifatiga bog‘liq.

Sabohat JUMANIYOZOVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi yetakchi mutaxassisi

Sharq xalqlarining “Manas”, “To‘maris” “Alpomish”, “Kuntug‘mish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Oysuluv”, “Orzigul”, “Layli va Majnun”, “Yusuf va Zulayho” kabi buyuk epos va dostonlarida ayol doimo erkak kishiga do‘st, yor, oqila, oilaviy fayzning timsoli sifatida ulug‘langan.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da farzand tarbiyasida onaning muhim vazifasi bolalarimizni yoshlikdan oilasi, mahallasi, vataniga mehr-muhabbatli qilib tarbiyalash ekani aytiladi.

Ayol fitratan, bir tomondan, nazokat timsoli bo‘lsa, ikkinchi tomondan, jamiyatga eng ta’sirli qudratdir.

Abu Rayhon Beruniy o‘z qarashlarida xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. “Mineralogiya” traktatida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinch-totuvlik, baxtiyorlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlaydi. Shuningdek, XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”) asarida oilaviy baxt ko‘proq xotinlarga bog‘liq, chunki erkak uchun soliha xotindan ortiqroq hech bir ne’mat yo‘qdir, oiladagi inoqlik, totuvlik, saranjomlik ular qo‘lidadir, degan fikrni ilgari suradi.

Mirzo Ulug‘bekning fikricha, bolada bilim olishga bo‘lgan qiziqish, havasni oshirishda u tarbiyalanayotgan muhit muhim o‘rin egallaydi. U ota-onalarni o‘z farzandlarining haqiqiy inson bo‘lib kamol topishiga alohida e’tibor berishga da’vat etgan.

Oila odobi va oilada ayollarning fazilatlari haqida buyuk mutafakkir Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida ajoyib fikrlarni bayon etgan. “Yaxshi xotin oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo‘lsa, ko‘ngil yozig‘i, xushmuomala bo‘lsa, jon ozig‘idir. Oqila bo‘lsa, ro‘zg‘orda tartib-intizom qaror topadi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi”, deydi shoir.

So‘nggi yillarda ayol-qizlarning bilimi, tarbiyasi va xulq-atvoriga e’tibor berish dolzarb masalaga aylanmoqda. Buning sababi kelajak avlod taqdiri bevosita onalarga bog‘liqligi va farzandlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish, yot g‘oyalardan himoya qilish, ilm va hunarga yo‘naltirish kabi ishlarga ularning mas’ul ekanidir.

Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasiga u hali homila holida kirishishni maslahat beradi. Buning uchun nimalarga e’tibor berish kerak, degan savol ko‘pchilikni qiziqtiradi. Avvalo, homilador ayolning turmushida halollik, poklik, ozodalik, ma’rifat bilan oshnolik, duo va yaxshi niyatlarni muntazam aytib, vatanparvarlikni shakllantiruvchi kitoblar o‘qib turishi lozim. Bu tug‘ilajak farzandning kelgusida vatanparvar, tarbiyali, odobli, e’tiqodli, chin inson bo‘lib kamolga yetishida juda katta ahamiyatga ega.

Turk olimi Rizouddin ibn Faxruddin “Oila” asarida: “Xotunlari tarbiyali bo‘lgan xalq tarbiyaliyu xotunlari tarbiyasiz bo‘lgan xalq tarbiyasiz, xotunlari tirishqoq, tadbirkor, irodali bo‘lgan xalq boyu xotunlari yalqov yoki isrofgar xalq faqir bo‘lishi aniqdir”, deydi.

Abdurauf Fitrat oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘lishiga e’tibor qaratadi.

Prezidentimizning “Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”, degan so‘zlari isboti o‘laroq, bugun yurtimizda har jabhada ayollar ulug‘lanmoqda.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda salohiyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oila institutini mustahkamlash borasida juda ulkan ishlar qilinyapti. Jumladan, ayollarni yanada ko‘proq bilim olishga undash, jamiyat hayotida faollikka hamda o‘z haq-huquqlaridan oqilona foydalanishga chaqirish, ularda mamlakat hayotiga daxldorlik hissini shakllantirish uchun “Ayollar forumi”, “Gender tenglik faoli” kabi milliy tanlovlar o‘tkazib kelinmoqda. 2024-yil sarhisobi bo‘yicha ushbu tanlov 10 ta nominatsiyada o‘tkazib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Oyina.uz portali “Gender tenglik faoli” milliy tanlovida 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi.

Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash maqsadida qabul qilinayotgan har bir normativ-huquqiy hujjat loyihasini gender-huquqiy ekspertizasidan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yo‘nalishida e’tirofga molik o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, shahar, tuman hokimi, vazir kabi mas’uliyatli lavozimlarga ayollar tayinlandi. Ularning boshqaruv sohalaridagi ulushi 33 foizga, tadbirkorlik sohasida 35 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 47 foizga yetdi. Amalga oshirilgan ishlar samarasi o‘laroq, mamlakatimiz 2024-yilda Gender tenglik va boshqaruv indeksida 103-o‘rindan 51 pog‘onaga yuqorilab, 52-o‘rinni egalladi.

Yurtimizda qizlarni sportga jalb etish borasida zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Sog‘lom onadan sog‘lom bola” kabi ezgu g‘oya asosida juda ko‘plab dasturlar amalga oshirilyapti.

Har yili oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan, mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega 500 xotin-qiz tavsiyanoma bilan test sinovlari natijalariga muvofiq, kontrakt asosida davlat oliy o‘quv yurtlarida o‘qiyapti. Shuningdek, magistratura bosqichida o‘qiyotgan barcha ayollarning kontrakt to‘lovlari qoplanmoqda va ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar davlat granti (2000 ta kvota) asosida o‘qishga qabul qilinmoqda. Shu bilan birga, 7 yilga foizsiz kredit ajratilib, muhtoj yolg‘iz ayollar va boquvchisini yo‘qotgan qizlarning oliy ta’limdagi kontrakt to‘lovlari qoplab berilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda ayolning chinakam baxtli yashashi, intellektual va ma’naviy yuksalishi, kasbiy hamda oilaviy majburiyatlarni uyg‘un tarzda bajarishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Oilada farzand tarbiyasida ayol kishining o‘rni deganda, faxr bilan aytamizki, bugungi kunda o‘zbek oilalari, xususan, onalarimiz, ayollarimiz oilaning sog‘lom iqlimli, oila bag‘rida farzandlarini el-yurtning munosib o‘g‘il-qizlari, vatanining haqiqiy sodiq fuqarosi bo‘lib voyaga yetishida jon kuydirmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyatini oshirish maqsadida obro‘-e’tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat “Oqila ayollar” harakati tashkil qilindi.

O‘zbekistonda ayollarning baxtli va o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun barcha sharoitlar yetarli. Demak, endi xotin-qizlar o‘z imkoniyatlarini ishga solib, porloq kelajakni bunyod etishga hissasini qo‘shishi muhim. Chunki bu o‘zgarishlar, yangiliklarni his qilish va tashabbus ko‘rsatish, faol bo‘lish har birimizdan mas’uliyat talab etadi.

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish maqsadida millat onalari yaratib berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, o‘zlariga berilgan ishonchni oqlashi, vatanparvarlik jasoratini ko‘rsatib, yurtimiz rivoji va kelajagi uchun xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

9-fevral – Alisher Navoiy tavalludi kuni

“AMIR ALISHER” DUNYO KEZMOQDA



Alisher Navoiy hayoti va ijodini bilmoq — o‘zlikni anglamoq, u haqda so‘zlamoq — millatni targ‘ib etmoq, uni tanitmoq — o‘zbek elini, o‘zbek ma’naviyatini anglamoq demak.
Ulug‘ bobomiz buyuk ijodkor bo‘lish bilan birga ulkan davlat arbobi ham edi. U o‘z hayotining katta qismini turkiy til, turkiy xalqlar tamadduni uchun baxshida etdi. Asarlari bir umumiy va yuksak konsepsiya — turkiy olam tafakkuri, ma’naviyati va madaniyatini kamol toptirish doirasida yaratilgan.

Ilyos ISMOILOV,
filologiya fanlari doktori

Navoiyni turkiy tilda “ko‘p va xo‘b” ijod qilishga, Sharq adabiyotida mezon va cho‘qqi hisoblangan “Xamsa”ni yaratishga, she’riyatning eng nafis janri bo‘lgan g‘azalning minglab namunalarini yozishga, fanning adabiyotshunoslik, tilshunoslik, dinshunoslik, tarix kabi sohalarida qalam tebratishga undagan asosiy omil ham aynan turkiy olam saodati haqidagi ideallari edi.

Yurtimizda shoir ijodining mana shunday muhim jihatlarini teran anglagan holda uni yanada ommalashtirish va ilmiy asosda chuqur o‘rganish, xalqchil qarashlarini jamiyat hayotining turli sohalariga tatbiq etish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bugun mamlakatimizning ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot, madaniyat kabi sohalarida “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” tamoyili asosida keng ko‘lamli islohotlar olib borilyapti. Bu jarayonda milliy yuksalishning ruhiy-ma’naviy asoslarini tashkil etuvchi buyuk mutafakkirlar asarlari, shoir va adiblarning ijod namunalarini keng yoyishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Alisher Navoiy o‘z asarlarida tasvirlagan tinchlik, tenglik, adolat, xalqchillik kabi ulug‘vor g‘oyalar davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inlariga, xalq hayotining muhim sohalariga joriy etilmoqda.

So‘nggi yillarda nafaqat ichki siyosatda, balki tashqi siyosatda ham ma’naviyat va adabiyotga e’tibor kuchaydi. O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan ahil-inoqlik, birdamlik, dunyo hamjamiyati bilan esa ochiq va ko‘p vektorli tashqi siyosat yuritmoqda. Endi mamlakatimiz tashqi siyosatda ilm-fan, adabiyot, xususan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ijodkorlar asarlari va qarashlaridan “yumshoq kuch” sifatida foydalanishga ustuvor ahamiyat qaratmoqda.

Davlatimiz rahbari 2019-yil 15-oktabrda Boku shahrida tashkil etilgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashi sammitida adabiyot bilan bog‘liq muhim tashabbusni — “Turkiy adabiyot durdonalari” nomli 100 jildli to‘plamni tashkilotga a’zo davlatlarning tilida nashr etish taklifini ilgari surdi. Natijada mazkur to‘plam 2022-yili tashkilotning Samarqand sammiti arafasida birinchilardan bo‘lib lotin alifbosiga asoslangan o‘zbek tilida chop etildi va kitobxonlarga yetkazildi.

Bu, shubhasiz, uzoqni ko‘zlab bildirilgan ijobiy tashabbus bo‘ldi. Shu orqali, bir tomondan, mamlakatimiz aholisi o‘rtasida kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishga, turkona ma’naviyatni keng targ‘ib etishga erishilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, katta adabiy xazinani, turkona tafakkur durdonalarini qardosh xalqlar orasida keng yoyishga, ularni o‘zaro jipslashtirishga ma’naviy zamin yaratildi. Bu turkiy tilli davlatlar birdamligi va hamkorligining adabiyot, madaniyat misolidagi o‘ziga xos namunasiga aylandi.

Yangi O‘zbekistonda ma’naviyat va madaniyatning siyosiy-iqtisodiy aloqalarga jiddiy ta’siri chuqur anglab yetildi. Natijada boy ma’naviy merosimiz, xususan, adabiyot durdonalaridan ham ichki, ham tashqi siyosatda samarali foydalanishga o‘tildi. Asrlar sinovida sayqallangan qadriyatlarimiz, noyob madaniyatimiz, olamshumul ahamiyatga molik asarlarimiz orqali O‘zbekistonning milliy qiyofasi, jozibador olami, yangi imiji namoyish etila boshladi.

Tilimiz va madaniyatimiz xalqaro aloqalarda, qardosh xalqlar bilan munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Davlatimizning madaniy-ma’rifiy sohaga bunday yondashuvi endi soha mutaxassislarini ham yangiliklar yaratish, el-yurt manfaatiga xizmat qiluvchi tadqiqotlar, asarlar bilan xalqaro maydonga chiqishga undamoqda. Olimlarimiz oldida o‘zbeklar, qolaversa, butun turkiy xalqlarning boy ma’naviy merosi mazmuni va ahamiyatini dunyo hamjamiyatining ziyoli qatlami uchun ilmiy asosda yoritish vazifasi turibdi.

Akademik Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” nomli tadqiqotining yuzaga kelishi va xorijiy tillarga tarjima qilinishi shu jihati bilan e’tiborga molik. U yuqorida qayd etilgan madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy zaruratning natijasi o‘laroq yuzaga keldi.

Aslida, turkiy xalqlar uchun g‘urur manbayi bo‘lgan Alisher Navoiy hayoti va ijodining olamshumul ahamiyatini ilmiy asosda jiddiy tadqiq etish, mazmun-mohiyatini yoritish, xalqaro miqyosda keng targ‘ib qilish fanimiz oldida turgan sharafli vazifalardan. Taassufki, milliy manfaatlarimizga muvofiq keluvchi, xolis nuqtayi nazar bilan o‘zbek olimi tomonidan yozilgan va jahon tillariga tarjima qilinib, xalqaro miqyosda e’tirof etilgan navoiyshunoslikka oid asarlarimiz yo‘q hisobi.

Xorijlik mutaxassislar bunday holatda, tabiiyki, Alisher Navoiy hayoti va ijodi, binobarin, turk dunyosining ma’naviy qiyofasi haqidagi haqiqatlarni milliy nigoh va vatanparvarlik kayfiyati bilan yozilgan tadqiqotlardan emas, balki begona ko‘zqarash, yot mafkura va dunyoqarash ta’sirida yozilib, jahonda keng tarqalgan tadqiqotlardan olishga majbur bo‘ldi. Shu tariqa dunyo xalqlarida Alisher Navoiy hayoti, faoliyati va ijodi — o‘zbek xalqi, turkiy olam ma’naviyati haqida ba’zan biryoqlama va soxta tasavvurlar shakllandi, ba’zan esa ular asl haqiqatdan to‘la bahramand bo‘la olmadi.

Shu ma’noda, “Amir Alisher” nomli tadqiqotning jahon tillariga tarjima qilinib, nashr etilishi ilm-fan, ma’naviyat va siyosat nuqtayi nazaridan katta voqea bo‘ldi. Bu voqeaning ko‘lami va mohiyatini to‘liq ochib berish, fanimiz va davlatchiligimiz uchun naqadar muhimligini oydinlashtirish uchun bunga qadar Alisher Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar tarixi va mohiyati bilan muxtasar tanishtirishga to‘g‘ri keladi.

Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati to‘g‘risida “Amir Alisher”ga qadar ham bir necha kitob yozilgan. Ularning aksariyati va muhimlari sobiq sovet tuzumi yillarida yaratilgan bo‘lib, tabiiyki, ko‘pida mustabid davr mafkurasi ustuvorlik qilgan.

“Amir Alisher” tadqiqotining yaratilishi va dunyo tillariga tarjima qilinib, keng yoyilishi, avvalo, buyuk o‘zbek mutafakkiri, qolaversa, o‘zbek ma’naviyati, adabiyoti, turkiy olam madaniyati to‘g‘risidagi soxta va yolg‘on qarashlarga ilmiy asosda xalqaro darajada barham berishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Ushbu asarda ulug‘ shoir hayoti va faoliyati, binobarin, o‘zbekning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasi haqidagi haqiqatlar milliy nigoh va vatanparvarlik nuqtayi nazaridan yoritilgan.

Monografiya, avvalo, olimning Alisher



Navoiy hayoti va faoliyati bo‘yicha 30 yildan ortiq vaqt mobaynida olib borgan fundamental va zahmatli ilmiy izlanishlarining o‘ziga xos umumlashmasidir. Navoiy fenomenining nazariy jihatlarini asarlari, ijodi o‘zida mujassam etgan bo‘lsa, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, ishlari uning amaliy ifodasini aks ettiradi. Shu ma’noda, ulug‘ shoir faoliyatini o‘rganish, uning asl tabiati va mazmunini ochib berish mohiyatan shoir ijodini tadqiq etishdan farq qilmaydigan muhim masaladir.

“Amir Alisher” asari ilk bor Toshkentda 2023-yili O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi homiyligi bilan “Adabiyot” nashriyotida chop etildi. Kitobning tuzilishi ham nomlanishiga muvofiq. U ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismi “Alisher Navoiyning yoshligi” deb ataladi va shoir hayotining 1441-1469-yillarini qamrab olgan. Ikkinchi qism “Amir Alisher va saroy” deb nomlangan. Unda Amir Alisher hayotining 1469-1501-yillari haqida hikoya qilinadi. Kitobning oxiriga Alisher Navoiy qurdirgan inshootlar hamda uning homiyligi va taklifi bilan yozilgan asarlarning to‘liq ro‘yxati ham ilova qilingan.

“Amir Alisher” olimning avval e’lon qilingan tadqiqotlaridan bir necha jihati bilan farq qiladi.

Birinchidan, ushbu asarda asosiy e’tibor Alisher Navoiyning hayoti va siyosiy faoliyatini qadimiy va ilk manbalardagi ma’lumotlar bilan xolisona yoritishga, shu masala atrofidagi tarixiy faktlarni tizimlashtirishga qaratilgan. Masalan, olim bu tadqiqotida Navoiy va Abu Said, Navoiy va Majddiddin munosabatlariga oid haqiqat va uydirmalarni, Navoiyning Astrobodga surgun qilingani haqidagi qarashlar to‘qib chiqarilgani, shuningdek, Navoiyning Mashhaddagi hayotini ishonchli ilmiy manbalar asosida yoritib beradi.

Ikkinchidan, bu kitobga muallifning oldin e’lon qilingan ishlariga muayyan sabablarga ko‘ra kirmay qolgan yangi ma’lumotlar qo‘shilgan. Sulton Husayn Boyqaroning maktubi bilan bog‘liq faktlar, Navoiyning nega oila qurmagani va tog‘asi Mir Said Kobuliy nima uchun “Kobuliy” nisbasini olgani haqidagi fasllar ayni shular sirasiga kiradi.

Uchinchidan, aniqlashtirish nuqtayi nazaridan qo‘shimcha izlanishlarga qo‘l urilgan. Shu bois, avvalgi tadqiqotlarga kirmay qolgan masalalar aniqlashtirilgan. Jumladan, Navoiyning otasi haqida nima uchun shoir hayotlik davrida yozib qoldirilmagan degan masala ochiqlangan. Navoiyshunoslikdagi bir nechta yanglish fikr to‘g‘rilangan, hatto muallifning o‘zi avvalgi ishlarida yo‘l qo‘ygan xatolar ham tan olinib, tuzatish kiritilgan. Xususan, Alisher Navoiy tug‘ilgan joy haqidagi bahslarga nuqta qo‘yilib, shoir Hirotda dunyoga kelgani dalillangan.

To‘rtinchidan, kitobda muallifning bayon uslubi o‘zgargan, ya’ni avvalgi tadqiqotlarida yuksak akademizm ko‘rsatib, chuqur ilmiy tahlillar bergan bo‘lsa, “Amir Alisher”da ana o‘sha ma’lumotlar mazmuni saqlangan holda keng kitobxonlarga tushunarli tarzda, imkon qadar muxtasar va foydalanish uchun qulay qilib soddalashtirilgan.

Turkiy dunyoning mashhur siymosi hayoti va faoliyati to‘g‘ri talqin etilgani, jiddiy ilmiy asoslarga tayanib yaratilgani, turkiy olam ma’naviyati namoyon etilishi kabi sabablar tufayli “Amir Alisher” asari tezda ilm ahli orasida keng yoyildi, kitobxonlarga manzur bo‘ldi. E’tiborli jihati, asar shuhrati xalqaro miqyosda ham yoyilib, e’tirof qozona boshladi. Bir-ikki yilda ko‘plab tillarga tarjima qilindi va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Jumladan, asar 2023-yili Gulbahor Ashurova tomonidan ozar tiliga o‘girilib, Bokudagi “Ilm va tahsil” nashriyotida chop etildi.

“Amir Alisher” Ozarbayjonda dong taratgach, tezda Turkiyadagi adabiyotshunoslar e’tiborini tortdi. Bu kitob 2023-yili Bullent Bayram tomonidan turk tiliga ham o‘girildi va Anqaradagi mashhur “BENGÜ YAYINLARI”da bosilib chiqdi.

“Amir Alisher”ning keyingi “safari” Amerikaga bo‘ldi. Kitob 2024-yilda ingliz tiliga “Emir Ali-Shir Navā’i” nomi bilan tarjima qilinib, Nyu-Jersidagi “Laytning Press” matbaasida yuksak poligrafik talab va mezonlarga mos holda nashr etildi. Shu ma’noda, o‘zbek navoiyshunosligining muhim yutuqlaridan biri bo‘lgan “Amir Alisher” kitobi nafaqat AQSH adabiyotshunosligi, balki ingliz tilida muloqot qiluvchi barcha ziyolilar e’tiboriga havola qilindi deyish mumkin.

Bu boradagi e’tiborli ishlardan yana biri 2024-yilda “Amir Alisher”ning Kobuldagi “Xuroson” bosmaxonasida arab alifbosiga asoslangan o‘zbek yozuvida chop etilishi bo‘ldi.



Kitob Ehsonullo Quvonch tomonidan nashrga tayyorlandi va “Kitob madaniyat markazi” ko‘magida nashrdan chiqdi. Ushbu nashr Afg‘onistondagi o‘zbeklar uchun ulkan tuhfadir.

Asarning 2025-yilda Shahlo Noraliyeva tomonidan qozoqchaga o‘girilib, Chimkent tumanida nashr etilgani esa Alisher Navoiy tavalludining 584 yillik to‘yiga munosib to‘yona bo‘ldi.

“Amir Alisher” tadqiqotining jahon tillariga tarjima qilinishi, avvalo, o‘zbek navoiyshunosligi uchun katta yutuq va yangilikdir. Shuningdek, ushbu voqea yana ikki muhim vazifa ijrosi uchun xizmat qiladi. Ulardan biri, o‘zbek xalqi, shuningdek, butun turkiy xalqlar tamsilchisi bo‘lgan Alisher Navoiyning dunyo ziyolilari orasida, xalqaro miqyosda munosib e’tirof topishi va u haqdagi asl haqiqatlarni ulashish nuqtayi nazaridan jiddiy ilmiy qadamdir.

Ikkinchisi, ushbu tadqiqotning xalqaro miqyosda keng yoyilishi davlatimizning tashqi aloqalardagi “yumshoq kuch” siyosatiga navoiyshunoslikning munosib hissasi sifatida qo‘shildi. Shubhasiz, mazkur tadqiqot va tarjimalar Alisher Navoiy hayoti va faoliyati, binobarin, o‘zbek xalqi, turkiy madaniyat va ma’rifat to‘g‘risida xalqaro hamjamiyatga muhim va ijobiy tasavvur berishga xizmat qiladi.

Amir Alisherning o‘zi “Olibmen taxti farmonimg‘a oson, Cherik chekmay Xitodin to Xuroson”, deya ta’kidlaganidek, dunyo ziyolilari orasida turkiy xalqlar o‘tmishi va madaniyatini targ‘ib etish asnosida yangi O‘zbekistonning ijobiy imijini shakllantirish, ichki imkoniyatlarini yanada jozibador qilib ko‘rsatishga yordam beradi. Xorijiy davlatlarda O‘zbekiston tarixi va madaniyati, o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishni keng targ‘ib qiladi, mamlakatimiz nufuzini oshirishga ko‘maklashadi. Shu saviya va ruhdagi ilmiy tadqiqotlarning yanada ko‘payishi esa vatanimiz sharafini yuksaltiradi, ham madaniy, ham iqtisodiy farovonlikka zamin yaratadi.

Nuri TINAZ,
Turkiyaning Marmara universiteti professori:

— Risolada turli tarixiy va arxiv materiallariga, jumladan, qo‘lyozma manbalar hamda Navoiyning zamondoshlari yozib qoldirgan tarixiy asarlarga tayanilgan. Ayniqsa, Husayn Boyqaro, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy va boshqa muarrixlarning asarlari muallif tomonidan tahlil qilingan. Ushbu manbalar orqali Navoiy hayotining ilgari kam o‘rganilgan jihatlari oydinlashtirilgan.

Almaz Ulvi BINNATOVA,
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi bo‘lim boshlig‘i, professor:

— Monografiya Alisher Navoiy hayoti va ijodini tahlil qilishda katta ahamiyatga ega. Asarning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, unda aniq qo‘lyozma manbalarga asoslangan holda Navoiy hayotining turli bosqichlari yoritilgan. Ushbu muvaffaqiyatli tadqiqot ulkan mehnat samarasidir.

Isa HABIBBEYLI,
Ozarbayjon Milliy ilmlar akademiyasi prezidenti, akademik:

— Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” monografiyasida Hazrat hayotiga oid yuz yildan buyon navoiyshunoslikda mavjud qator xatoliklarga aniqlik kiritilgan. Ularning sabablari o‘rganilib, qiyos asosida xulosalar chiqarilgan. Qisqasi, risola orqali shu vaqtga qadar uddalanmagan ulkan ish — Alisher Navoiyning ilmiy biografiyasi yaratilgan.

Sebahat DENIZ,
Turkiyaning Marmara universiteti professori:

— Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” monografiyasida Navoiy ilmiy biografiyasi yuzasidan yaratilgan avvalgi tadqiqotlarga qaraganda ko‘proq aniq tafsilotlar keltirilgan. Jumladan, uning badiiy iste’dodi yoshligidan boshlab shakllangani, Husayn Boyqaro bilan do‘stligi va bu munosabatning keyingi hayotiga ta’siri batafsil yoritilgan. Tadqiqotda Navoiyning yigitlik yillari, davlat boshqaruvidagi ishtiroki, adabiy maktab yaratishdagi sa’y-harakatlari hamda o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy voqealariga munosabati ham o‘z aksini topgani va tarixiy faktlar bilan isbotlangani asarning ilmiy qiymatini oshirgan.

Elizabet RAGAGNIN,
Italiyaning Ka-Foskari universiteti professori:

— Hamkasbimiz Shuhrat Sirojiddinovning “Amir Alisher” nomli yangi monografiyasi tom ma’noda ilmiy xazinadir. U Markaziy Osiyo turkiy adabiyoti va she’riyati xususida ingliz tilli ilmiy jamoatchilikda uzoq yillardan beri mavjud bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldiradi. Bu asarda temuriylar davrining eng muhim shaxslaridan biri bo‘lgan Alisher Navoiy hayoti hamda faoliyati chuqur tadqiq qilingan, shoirning obyektiv tarjimayi holi taqdim etilgan. O‘n yildan ortiq davom etgan puxta tadqiqotlar asosida akademik Sh.Sirojiddinov bu ajoyib shaxs haqida to‘liq va yetarli ma’lumot to‘plagan hamda mazkur kitobda ilmiy jamoatchilikka taqdim qilgan.

Alisher Navoiy — buyuk shoir, davlat arbobi, temuriylar sultoni Husayn Boyqaroning ishonchli maslahatchisi, turkiy tilning qat’iy himoyachisi va ko‘plab shoirlar, olimlar hamda san’atkorlar homiysi. Shu bois, bu fenomen uzoq yillardan beri turkologlarni o‘ziga jalb qilib kelgan va dunyo bo‘ylab tadqiqotchilarni ilhomlantirgan. Ushbu yangi monografiyada shoirning shaxsi turli jihatlardan o‘rganilgan. Olim Alisher Navoiyning bibliografiyasi va hayot yo‘lini juda chuqur o‘rganib, mutaxassislar uchun ham, oddiy kitobxonlar uchun ham bu buyuk shaxsning har bir jihatini, jumladan, ilgari e’tibordan chetda qolgan diniy va ilohiyotga doir qarashlarini qamrab olgan qimmatli manba taqdim etadi. Sovet davri olimlari tomonidan e’tiborsiz qoldirilgan mavzular mazkur ilmiy asarda yangi va chuqur tahlillar bilan bayon etilgan.

Matnshunoslik va manbashunoslik, turkologiya va tarix sohalariga qimmatli va juda ahamiyatli hissa qo‘shgani uchun Shuhrat Sirojiddinovga chin qalbdan minnatdorlik bildiramiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
36060 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘zA yakuni — 00:15 Topshirildi — 00:40

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05